

### XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MOLIYAVIY MAHSULOTLARINING SHAKLLARI VA TAQSIMLASH JIHALTLARI

*Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich*

*Fan va texnologiyalar universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada xalqaro moliya institutlari moliyaviy mahsulotlari va ularning turlari to'g'risida fikr yuritilgan. Unda xalqaro moliya institutlarining moliyaviy mahsulotlari shakllari va a'zo-mamlakatlarga taqsimlash jihatlari tahlil etilgan. Tahlil natijasida tegishli xulosa va takliflar keltirildi.

**Kalit so'zlar:** xalqaro moliya institutlari, moliya mahsulotlari, kredit, Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki.

**Аннотация.** В статье рассматриваются различные виды финансовых продуктов, выдаваемые международными финансовыми институтами. Был проведен анализ видов финансовых продуктов и критерий распределения странам-заемщикам. По результатам проведенного анализа сделан комплексный вывод по данной тематике и предложены рекомендации.

**Ключевые слова:** международные финансовые институты, финансовые продукты, кредит, Всемирный банк, Азиатский банк развития, Исламский банк развития.

**Abstract.** The article discusses different types of financial products of the international financial institutions. There was conducted analysis of types of financial products and allocation criteria to member-countries. Finally, there was made a comprehensive conclusion on the thematics and given recommendations.

**Key words:** international financial institutions, financial products, loan, World bank, Asian development bank, Islamic development bank.

Xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan moliya mahsulotlari xalqaro moliya tizimidagi maqbul va uzoq muddatlilik bilan ajratilb turadi. Rivojlanayotgan milliy xo'jaliklarning moliya va kapital bozorlariga dunyo moliya tizimidagi birlamchi manbalardan moliya resurslarni keng sur'atlarda jalb etilishi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, makroiqtisodiy barqarorligini, hamda iqtisodiyot tarmoqlarini raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon xo'jaligining globallasuvi va milliy iqtisodiyotlarning transformatsiyalashuv jarayonlarida xalqaro moliya institutlari tomonidan taklif etilayotgan moliya mahsulotlarining mohiyatini chuqur o'rganilishi, a'zo-mamlakatlarning ulardan foydalanishida, shu bilan birga asoslangan qaror qabul qilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, o'zaro iqtisodiy hamkorlik doirasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarning samardorligini ta'minlashda ham, xalqaro moliya institutlarining moliyaviy mahsulotlarini ilmiy tahlil etish tizimli islohotlar amalga oshirilayotgan davrning talabi hisoblanadi.

Ma'lumki, moliyaviy mahsulot, xalqaro moliya institutlari tomonidan xalqaro moliya bozorida tovar sifatida taklif qilinadigan o'zaro bog'langan moliyaviy xizmatlar, moliyaviy vositalar va texnologiyalar to'plami hisoblanadi.

Xalqaro moliya institutlarining umumiy o'xshash jihati taqdim etilayotgan moliyaviy mahsulotning aniq maqsadlar (dastur va loyihalar) doirasida taqdim etilishi lozimligi hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki) moliyaviy mahsulotlari shakllari va mexanizmlarini alohida tahlil etilishi o'rganish predmetini yanada kegaytirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, Jahon banki guruhi yirik moliya dastaklarini va maslahat xizmatlarini taqdim etadigan moliya instituti hisoblanadi. Mazkur xalqaro moliya tashkiloti moliya resurslarini maqsadli ajratishning asosan uchta moliya dastaklari orqali amalga oshiradi:

1. Investitsion loyihalarni moliyalashtirish (iqtisodiyotning turli sektorlari dorasida amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish);
2. Loyiha natijasiga bog'langan kreditlash dasturi (loyiha doirasida erishilgan natijalarga qarab kredit resurslarini ajratish);
3. Mamlakat tuzilmaviy o'zgarishlari va taraqqiyot maqsadlarini moliyalashtirish (mamlakatda institutsional, tuzilmaviy, siyosiy, iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash uchun moliya resurslarini ajratish);

Ba'zi holatlarda moliyalashtirish ikki yoki uniyalashtirish dastaki yuzasidan alohida shartnomalar yoki umumlashtirishirilgan ya'ni gibrud moliyalashtirish tizimi qo'llanoiladi. Qayd etilgan moliyashtirish dastaklari Jahon banki guruhining standart kredit sikli doirasida amalga oshiriladi.

Jahon banki guruhining asosiy kredit tashkiloti Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi hisoblangani uchun mazkur tashkilotlarning moliyaviy mahsulotlarini tahlil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ma'lumki, XTTB a'zo-mamlakatlariga resurslar olish, uchun moslashuvchan va arzon moliyaviy mahsulotlarni taklif etadi. XTA esa, qashshoq rivojlanayotgan mamlakatlarga juda past yoki nol foiz stavkali kredit va grantlar taqsim etadi.

Yuqorida ta'kidlangan moliyaviy mahsulotlardan tashqari, Jahon banki kafolatlar, Loyiha tayyorlash jamg'armasi mahsulotlari va maxsus trust fondlarining kreditlari kiradi.\*

Hozirgi kunga kelib, XTTB quyidagi turdagi resurs turlarini taqdim etadi:

a) XTTBning moslashuvchan to'lov shartlaridagi kreditlari (ingliz. IBRD flexible loan). Mazkur moliyalashtirish turida a'zo-mamlakatlarning loyihalarni amalga oshirish doirasidagi talablarini bir maromga yetkazishlari uchun bir qator shartlar taklif etiladi. Ular qatoriga: kredit valyutasi, foiz stavkasi, foiz stavkasi spredi, qarzdorlik qaytarilishi shartlari, jadvali, sxemasi, yig'imlar, to'lov kunlari va boshqalar.

b) Moslashuvchan shartdagi kreditning kechiktirilgan resurs opsi. Ko'zda tutilmagan favquloddagi hollarda likvidlikni ta'minlash maqsadida ajratiladi. Unda moliyalashtirish kerakli vaqtgacha resurslarni qabul qilishni cho'zish imkoniyati mavjud bo'ladi. XTTB mazkur kechiktirilgan resurs opsi kredit turini ikkita shaklini taqdim etadi: mamlakat taraqqiyot maqsadlarini kechiktirilgan opsi kredit turi va tabiiy ofatlar holatidagi kechiktirilgan opsi resurslari.

d) XTTBning maxsus taraqqiyot dasturlari doirasidagi kreditlari (ingliz. IBRD special development policy loan). A'zo-mamlakatlarning ijtimoiy, tuzilmaviy xarakterdagi muammolarni,

inqirozli vaziyatlarni tezkor bartaraf etish talabi yuzaga kelganda taqdim etiladigan qarzdorlik shakli hisoblanadi. Uning imtiyozli davri 3-5 yilni qamrab oladi, umumiy davri esa 5-10 yilni tashkil etadi.

XTA ning moliya mahsulotlari shu bilan farq qiladiki, unda mamlakatlar iqtisodiy darajasini hisobga olingan holda, kichik yoki nol foizdagi, hamda uzoq muddatlarga (25-40 yil, imtiyozli davr 5-10 yil) taqdim etiladi. XTA ning hozirgi kunda taraqqiyot madsadlari uchun ajratadigan resurs turlari quyidagilardan iborat:

Oddiy kreditlar. Imtiyozli shartlar asosida yalpi milliy daromadi past darajadagi a'zo-mamlakatlarga taqdim etiladi.

Aralash turdagi kreditlar. Yalpi milliy daromadi past darajadan yuqori a'zo-mamlakatlarga taqdim etiladi.


Qattiq shartlardagi kreditlar. Bunda oddiy kreditlarga qo'shimcha ravishda resurs ajratishni bildiradi.

Vaqtinchalik yordam kreditlari. XTA a'zolidan chiqqan mamlakatlarga vaqtinchalik resurslarni ajratilishini anglatadi.

Kengaytirilgan XTA kreditlari. A'zo-mamlakatlarga oddiy shartlarda kengaytirilgan ya'ni qo'shimcha moliyalashtirishni o'zida mujassam etgan moliyashtirish turi hisoblanadi.

Qolaversa, XTA quyi darajadagi daromadga ega a'zo mamlakatlarning tashqi qarzdorligini iqtisodiy maqbul darajasini saqlash uchun beg'araz texnik yordam ya'ni grantlar taqdim etiladigan moliyaviy mahsulotlar sirasiga kiradi. Bunda grantlar qarzdorlikni qaytarish yoki yig'imlar to'lovidan ozod etiladilar, biroq XTA kredit ajratish tizimida uning hajmini kamaytirilishiga olib keladi.

Shu bilan birga, Jahon banki investitsion loyihalar doirasida kafolatlar taqdim etishni ham amalga oshiradi. Bunday kafolatlar kredit sifatini oshirib turli iqtisodiy- siyosiy risklardan himoyalagan holda investitsion loyihalar moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi (1-rasmga qarang).





### 1-rasm. Jahon banki guruhining moliyaviy kafolat mahsulotlari

Jahon banki guruhi alohida kreditlash mexanizmlarda tashqari birgalikda moliyalashtirish (ingliz. co-financing) sxemasini ham taklif etadi. Bunda aniq loyiha doirasida tashqi ikki yoki ko'p tomonlama sheriklarning zaxiralangan mablag'larini jalb etiladi. Qoalversa, bunday sxematik moliyalashtirish tizimida Jahon banki loyihani o'zi baholaydi, moliyalashtirishni tasdiqlaydi, va asosiysi sherikdan qarzni to'lash xavfini olib tashlaydi.

Undan tashqari, a'zo-mamlakatlarga moliyaviy resurs ajratish uchun Jahon banki trust fondlardan (Global ekologik fond, Ijtimoiy siyosat ishlab chiqish va inson resurslari taraqqiyoti fondi) foydalanadi. Bunda fond resurslari investitsion loyiha va dasturlar, texnik yordam ko'rsatish yo'nalishlariga taqsimlanadi.

Jahon banki guruhi a'zo-mamlakatlarga moliyaviy mahsulotlarni (kredit, grant, kafolat) taqsimlash mexanizmini tasniflash me'zoni orqali amalga oshiradi. Asosiy tasniflash me'zoni mamlakatlarning geografik joylashuvi, daromadlari miqdori, va Jahon banki guruhining operatsion kreditlash toifalari jihatidan belgilanadi. Mazkur guruhlar vaqt davomida iqtisodiy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan o'zgarishi ham mumkin. Mamlakatlarning geografik joylashuv guruhlariga qarab tasniflanishi, asosan Jahon bankining ma'muriy maqsadlari uchun foydalaniladi. Shu nuqtai nazardan, Jahon banki guruhining a'zo-mamlakatlar uchun iqtisodiy siyosati ko'proq mamlakatlarning daromadlariga asoslanadi.

Jahon banki guruhining Jahon mamlakatlari iqtisodiyotini daromadlar jihatidan to'rtta guruhga: yuqori, o'rtadan yuqori, o'rtadan past va past daromadli mamlakatlar doirasida tasniflaydi. Daromadlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy daromad (ingliz. Gross National Income per capita current USD) AQSh dollarida Atlas usulida hisoblanadi. Mazkur klassifikatsiya yilning har 1 iyulida yangilanib borishini ham ta'kidlash lozim.

Qoalversa, Jahon banki mamlakatlarni, yana moliyashtiruvchi tashkilot doirasida ham tasniflashi mumkin. Jahon bankining operatsion siyosatiga asoslanib milliy xo'jaliklar, Xalqaro taraqqiyot banki, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda aralash (XTB va XTTB) guruhlariga ajratiladi. Bunda mamlakatlarning suveren kredit reytingiga asoslanib faqat bir yoki ikkita moliya institutidan kredit resurslarini jalb etishi mumkin bo'ladi.

2020-moliyaviy yil uchun Jahon banki daromadlar doirasida a'zo- mamlakatlarni quyidagicha tasnifladi: past daromadli mamlakatlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy daromad indeksi (keyingi o'rinlarda-GNI) 1 025,00 AQSh dollari yoki undan past hisoblansa; daromadi o'ratachadan past mamlakatlarga GNI indeksi 1 026,00 AQSh dollaridan 3 995,00 AQSh dollarigacha hisoblansa; daromadi o'rtachadan yuqori mamlakatlarga GNI indeksi 3 996,00 AQSh dollaridan 12 375,00 AQSh dollarigacha hisoblansa; va yuqori daromadli mamlakatlarga GNI indeksi 12 376,00 AQSh dollari yoki undan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa mazkur guruhdan joy oladi.

Jahon banki guruhi a'zo-mamlakatlarni tasniflash metodlari doirasida uchta: mintaqalar, daromadlar va moliyalashtirish guruhlariga joylashtiradi. O'zbekiston Respublikasi Jahon bankining mintaqalar doirasida - Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi, daromadlar jihatidan - O'rtachadan past daromadli xo'jaliklar, hamda moliyalashtirish doirasida – Aralash (ya'ni ham Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki kreditlarini jalb etishi mumkin) guruhiga kiradi. Shu nuqati nazardan, Jahon banki guruhi a'zo-mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanganlik doirasida guruhlariga joylashtirganidan so'ng, har bir

guruhning to'lov qobiliyatiga mos moliyaviy mahsulotlarning shartlarini (kredit foizi, kredit davri va boshqalar) ishlab chiqadi.

Umuman olganda, Jahon banki guruhi a'zo-mamlakatlarga turli moliyaviy mahsulotlarni bir qator shartlar asosida taqdim etadi. Moliyaviy mahsulotlarning taqsimlanish shakli a'zo-mamlakatlarning iqtisodiy-moliyaviy darajasi, xususiyati va daromadiga asoslanadi. Jahon bankining xalqaro nufuzining yanda ortishi uchun moliyashtirish tamoyillari va prinsiplariga rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sanoatlashuv, yashil va innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonlari uchun alohida moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki globallashtirish jarayonida yangi moliyaviy mahsulotlarni taklif etish davr talabidir.

Osiyo taraqqiyot banki a'zo-mamlakatlarga kreditlar, grantlar, texnik yordam, kafolatlar, va qarzdorlik boshqarish mahsulotlari singari moliyaviy shakl va mexanizmlarni taklif etuvchi mintaqaviy taraqqiyot muassasi hisoblandi.

Shuni qayd etish lozimki, Osiyo taraqqiyot banki moliyaviy mahsulotlarni oddiy kapital resurslari (ingliz. Ordinary Capital Resource), Osiyo taraqqiyot fondi (ingliz. Asian Development Fund), maxsus va trust fondlar orqali moliyalashtirishni amalga oshiriladi. Osiyo taraqqiyot banki tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy mahsulotlar quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

1.Liborga asoslangan kreditlar (ingliz. Libor based loans, LBL). Osiyo taraqqiyot banki suveren va davlat tomonidan kafolatlangan moliya resurslarini olti oylik London banklararo kreditlar stavkasi (ingliz. London Interbank Offered Rate, LIBOR) bilan suzib yuvchi foiz stavkasi asosida taqdim etadi. Libor moliya bozorga asoslangan kredit mahsuloti hisoblanadi, Osiyo taraqqiyot banki singari taraqqiyot banklari uchun shaffof bozor narxlarini ta'minlashda iqtisodiy-moliyaviy samarali unsur hisoblanadi. Qolaversa, bunday mahsulot doirasida valyutani tanlash (yevro, yena, AQSh dollari), qarzdorlikni so'ndirish sxemasi moslashtirish imkoniyati mavjud. Bunday moliyaviy mahsulot foiz qiymatlari Osiyo taraqqiyot banki tomonidan tahlil etiladi va bozordagi o'zgarishlarga qarab yangilanib turiladi (Qarang: Ilova 6).

2.Mahalliy valyutadagi kreditlar (ingliz. Local currency loan, LCL). 2005- yilda qarz oluvchilarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida milliy valyutadagi mahsulot taqdim etilgan. Undan, xususiy sektor korxonlari, davlat sektorining ayrim subyektlari foydalanishi mumkin. Bunda mamlakatdagi valyuta nomutanosibligini oldini olish hamda mahlliy kapital bozorni rivojlantirish uchun mazkur moliya mahsulot shakli ishlab chiqilgan. Qolaversa, qarz oluvchilarga kelishuvlar asosida foiz stavkalarini o'zgartirish imkoniyati beriladi.

3.Oddiy kapital resurslarining imtiyozli kreditlari (ingliz. Concessional OCR loans, COL). Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanish bo'shlig'ini to'ldirish va a'zo-mamlakatlardagi qashshoqlikni kamaytirish maqsadida past foiz qiymatlarida imtiyozli kreditlar hisoblanadi. Rivojlanayotgan a'zo-mamlakatlarga imtiyozli yordam ularning taraqqiyot jarayonidagi muammolarini yengib o'tish, inklyuziv va barqaror o'sishni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan.

4.Qarzdorlikni boshqarish mahsulotlari (ingliz. Debt management products). Osiyo taraqqiyot banki a'zolariga uchinchi tomonga bo'lgan qarzdorlikni boshqarish mahsulotlarini taqdim etadi. Uchinchi tomon majburiyatlari uchun qarzni boshqarish mahsulotlarini taklif etishda, a'zo-mamlakatlar tashqi qarzdorliklari tizimini yaxshilashga imkon yaratiladi. Bunda valyuta, milliy valyuta va foiz svoplari singari qarzdorlikni boshqarish mahsulotlari joriy etilgan.

Osiyo taraqqiyot bankining 2030-strategiya dasturi doirasida yuqoridagi moliyaviy mahsulotlardan tashqari yangi dastak va usullarni ishlab chiqdi:

I.Loyihani tayyorligini moliyalashtirish (ingliz. Project readiness financing, PFR) OTB loyihalari samaradorligini oshirishni, natijalarga o'z vaqtida erishishni va iqtisodiy xarajatlarni kamaytirishni ta'minlaydi;

II.Kichik xarajatlarni moliyalashtirish vositasi (ingliz. Small expenditure financing facility, SEFF) miqdoriy kichik xarajatlarni (har bir faoliyat uchun 15 mln. AQSh dollargacha) tez sur'atlarda resurs bilan ta'minlaydi. Bunda OTB moliyalashtirigan yirikroq loyiha doirasida amalga oshirilishi talab etiladi.

III.Taraqqiyot dasturlarini moliyalashtirish kafolatlari (ingliz. Policy-based Guarantee, PBG) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining maqsad va vazifalari doirasida hukumat budjetini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bunda moliyalashtirish resurslarini taqdim etilishi uchun kredit ajratish kafolati taqdim etiladi.

Osiyo taraqqiyot bankining rivojlanayotgan a'zo-mamlakatlarning imtiyozli moliyaviy resurs olish huquqi quyidagi ikkita ko'rsatkichga: 1) aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy daromad (GNI indeksi); hamda 2) oddiy kapital resurslari uchun kredit uchun layoqatlilik ya'ni to'lov qobiliyatiga asoslanadi.

Osiyo taraqqiyot banki ham, Jahon banki guruhi singari mamlakatlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy daromadni atlas usuliga asoslanib hisoblaydi. A'zo-mamlakatlarning to'lov qobiliyati ya'ni moliyaviy resursni qaytarish imkoniyatlari quyidagi uchta toifaga: yetarli darajada layoqatga ega, cheklangan layoqatga ega, va moliyaviy resursni qaytarishga layoqati bo'lmagan mamlakatlarga qarab ajratiladi. Shu nuqtai nazardan, yuqoridagi ma'lumotlardan foydalangan holda, Osiyo taraqqiyot banki a'zo-mamlakatlarni quyidagi uch bosqichli tizim orqali tasniflaydi: A guruh (faqatgina imtiyozli yordam), B guruh (Oddiy kapital resurslari va imtiyozli yordam) va C guruh (faqat oddiy kapital resurslari). O'zbekiston Respublikasi Osiyo taraqqiyot bankining mamlakatlar tasnifida B guruhida joylashgan. Bunda mamlakatimiz oddiy kapital resurslar va imtiyozli yordam olish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, Osiyo taraqqiyot banki moliya mahsulotlarini ishlab chiqish va taqsimlash jihatidan xalqaro moliya institutlari orasida innovatsion yondashuvni amalga oshirishini haqli ravishda e'tirof etish lozim. Chunki mazkur moliya tashkiloti doimiy ravishda xalqaro moliya tizimini tahlil etish, a'zo-mamlakatlar talabi o'rganish uchun izlanishlar amalga oshiradi. Bu esa mazkur moliya tashkilotining negizida yapon rivojlanish modeliga xos unsurlar yotishini anglatadi.

Osiyo taraqqiyot bankining a'zo-mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy va mamlakat daramadi jihatidan tasniflash yondashuvi, ularga nisbatat kredit siyosatini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda, Osiyo taraqqiyot bankining ajratayotgan moliya mahsulotlari hajmining grantlar va texnik yordam miqdori va turlarini ko'paytirishi uning xalqaro nufuzi ortishiga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan bozor munosabatlariga asoslangan moliyalashtirish tizimiga nisbatan alternativ hisoblangan moliyalashtirish tizimi va shakllariga ega Islom taraqqiyot banki singari islom moliyasiga asoslanga moliya tashkilotini alohida ta'kidlash jozi. Shuni qayd etish kerakki, moliyaviy resurslarni taqsimlashi, oldindan belgilangan islomiy jihatdan maqbul, ijtimoiy va



moliyaviy maqsadlarni ko'zlagan holda amalga oshiriladi. Qolaversa, moliyalashtirish doirasida amalga oshiriladigan loyihalar sikli ham bir qator texnik ajralib turuvchi xususiyatlarga egadir.

Islom taraqqiyot banki qator iqtisod tarmoqlari va sohalari uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni, bir qator moliyalashtirish yo'llari va dastklari orqali ajratadi. Islom taraqqiyoti banki tomonidan taqdim etiladigan asosiy moliyaviy mahsulot turlari quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi: 5

1.Lizing moliyalash vositasi–IJARA.

2.Savdo moliyalashtirish vositasi–ISTISNA'A (Qurilish/ Ko'chmas mulkni rivojlantish) va MURABAHA (muddatli qisman to'lash);

3.Investitsiyalarni moliyashtirish vositasi–CHEGARALANGAN MUDARABA dan iborat.

Ijara (Lizing) kredit liniyasi umum qurilish ishlari uchun aktivlar bilan moliyalashtiradi va infratuzilma, sanoat va agro-sanoat uchun mashinasozlik va asbob-uskuna bilan ta'minlash asosiy maqsadi hisoblanadi. Qolaversa, lizing davri davomida lizing aktiviga bo'lgan egalik huquqi Islom taraqqiyot bankida saqlanib

turadi. Ijara qiymati berilgan aktiv qiymati va foyda miqdori (qat'iy belgilangan yoki o'zgaruvchan) asosida belgilandi. Ijaraga olingan aktivning mablag'lari to'langandan so'ng, egalik huquqi mijozga o'tkaziladi.


Istisna'a (qurilish/ko'chmas mulkni rivojlantish) moliyalash turi mulkka egalish qilish huquqi Islom taraqqiyot bankida bo'lmaydigan hollarda, hali infratuzilmasi qurilmagan mulkni, qurish yoki rivojlantirish uchun moliyalashtirish bilan ta'minlaydi. Qolaversa, nomoddiy aktivlarni (gaz, elektr energiya, ishchi kapital) moliyalashtirish uchun ham ko'maklashadi. Shu bilan birga, Islom taraqqiyot banki aktivlarni mijoz bilan kelishuv asosida ma'lum vaqt doirasida rivojlantirishni nazarda tutadi. Qolaversa, topshirilgan loyihaning amalga oshirilishi uchinchi tomon ya'ni boshqa pudratchi tomonidan bajarilishi kerak bo'ladi. Sotish narxi esa ish stavkasi va qo'shimcha narx asosida belgilandi.

Murabaha (muddatli qisman to'lash) turdagi moliyalashtirishda, mahalliy ishlab chiqarilgan yoki import qilinadigan asosiy vositalarni, mijoz uchun Islom taraqqiyot banki sotib oladi va mijoz uchun kechiktirib bo'lib to'lash sharti asosida yetkazib beradi. Asosiy vosita mijozga yetkazib berilgandan so'ng, aktivga egalik huquqi Islom taraqqiyot bankidan mijozga o'tadi. Shu bilan birga, sotuv qiymati, sotib olinayotgan asosiy vosita va daromad qiymati bilan birga qo'shilib hisoblanadi.

Chegarlangan Mudaraba turi mijozlarga investitsion shart-sharoitlar doirasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi Islom taraqqiyot bankining investitsion dastaklaridan hisoblanadi. Mudaraba shart-sharoitlarga qarab *chegaralangan* yoki *chegaralanmagan* bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, Islom taraqqiyot tanki uchun maxsus erta ogohlantirish tizimi, bozorni yumashatish, kredit risklarini kamaytirish va tasdiqlangan maqsadlar doirasida mablag'larning sarflanishini kuzatish tizimi ishlab chiqilganligini ham alohida ta'kidlash jozidir. Islom taraqqiyot tanki va mijoz o'rtasidagi daromad, investitsiya loyihasi asosida hisoblangan qiymatlar asosida, kelishilgan miqdorda taqsimlanadi.

Yuqorida qayd etilgan moliyalashtirish dastaklaridan tashqari, Islom taraqqiyot banki kafolatlar, grantlar va texnik yordamni ham taklif etadi. Ulardan keng miqyosda

foydalanish jalb etilayotgan tashqi yordamni diversifikatsiyalash vazifasini bajaradi va mazkur moliya instituti ekspertlarining tajribasidan foydalanish imkoniyatini yaratadi (2–rasmga qarang).



2–rasm. Islom taraqqiyot bankining moliyalashtirish mahsulotlari

Shuni ta'kidlash lozimki, Islom taraqqiyot banki a'zo-mamlakatlari o'rtasida moliyaviy resurslar portfelini doimiy ravishda muvozanatlashtirishga harakat qiladi. Yillar mobaynidagi ajratmalar miqdorini a'zo davlatlar orasida oshirishni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, Islom taraqqiyot banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining eng kam rivojlangan mamlakatlar (ingliz. Least Developed Countries, LDC)<sup>7</sup> qatoridan joy olgan a'zo-davlatlariga imtiyozli moliyaviy resurslar ajratishni o'zining bosh maqsadi sifatida qaraydi.<sup>8</sup>

Islom taraqqiyot banki shariat qonunlariga asoslangan holda iqtisodiy siyosat yuritar ekan, a'zo-mamlakatlarni mintaqaviy joylashuv ya'ni geografik nuqtai nazardan ajratadi ya'ni klassifikatsiya qiladi.

Hozirgi kunga kelib esa, Islom taraqqiyot banki a'zo-mamlakatlarni, uchta demografik guruh doirasida klassifikatsiya qiladi. Ular esa, Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Yevropa (ingliz. Middle East, North Africa and Europe, MENA and Europe), Osiyo (ingliz. Asia), va Afrika va Lorin Amerika (Africa and Latin America, ALA) guruhlari hisoblanadi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi mazkur mintaqaviy guruhning Osiyo guruhidan joy olgan (Qarang: Ilova 16).

Islom taraqqiyot banki moliyaviy mahsulotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, uning loyihalarni foizsiz moliyashtirish mexanizmi, ya'ni sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish modeli g'arb moliyalashtirish tizimidan qator xususiyatlar bilan ajralib turadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur



moliya tashkiloti moliyalashtirish unsur va dastaklaridan keng foydalanish, milliy xo'jaliklar tarmoq sohasini resurslar bilan ta'minlash, xorijiy jalb etilayotgan kapital shakllarini diversifikatsiyasi qilish imkoniyatini yaratadi.

Biroq, Islom taraqqiyot bankining a'zo-mamlakatlarni tasniflash me'zonining mintaqaviy yondashuvga asoslanganligi, ularni xususiyatlarini o'rganish va o'zaro hamkorlik salohiyatidan yuqori darajada foydalanish jarayoniga ta'sir etadi.

Shu nuqtai nazardan, bizningcha, Islom taraqqiyot banki moliyaviy mahsulotlarni a'zo-mamlakatlar doirasida taqsimlash jarayoniga iqtisodiy asoslar me'zonini birlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda masalan, aholisi ko'p, ammo daromadi kam davlatlar, dengiz bo'yida qulay geografik joylashgan, anklav mamlakatlar, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik past darajali mamlakatlar singari tasniflarni joriy etilishi maqadga muvofiq. Qolaversa, moliyaviy resurslarning a'zo- mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik jihatidan loyihalar foyda ulushi, muddati, tarmoq tarkibi qayta ko'rib chiqilishi, kapitalning eng dolzarb muammolar doirasida taqsimlanishi ta'minlaydi.

Umuman olganda, xalqaro moliya institutlarining moliyaviy mahsulot va dastaklaridan samarali hamda unumli foydalanish negizida aynan tizimli-tahliliy izlanishlar yotishini qay etish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Миркин Я.М., Миркин В.Я. Англо-русский толковый словарь по финансовым рынкам. М.: Альпина Бизнес Букс, Альпина Паблишерз. 2008,-389 с.
2. Справочник по предоставлению займов для заемщиков Всемирного банка. [Elektron resurs]. URL: [http://siteresources.worldbank.org/BORROWERPORTAL/Resources/Disb\\_Handbook\\_Russian.pdf](http://siteresources.worldbank.org/BORROWERPORTAL/Resources/Disb_Handbook_Russian.pdf)
3. World Bank Group. How does the World Bank classify countries. [Elektron resurs]. URL: <https://datahelpdesk.worldbank.org/knowledgebase/articles/378834-how-does-the-world-bank-classify-countries>
4. Asian Development Bank. Financial products. [Elektron resurs]. URL: <https://www.adb.org/site/public-sector-financing/financial-products#>
5. Mansur A. Noibi. Islamic Financing Models&PPP Opportunities.Power investors summit Nigeria, 20-21 march 2014, Lagos, Nigeria. [Elektron resurs]. URL:[http://www.energynet.co.uk/ru/webfm\\_send/516](http://www.energynet.co.uk/ru/webfm_send/516)
6. The Islamic Development Bank. Disbursement handbook. [Elektron resurs]. URL: [https://www.isdb.org/sites/default/files/media/documents/2019-10/DH%20-](https://www.isdb.org/sites/default/files/media/documents/2019-10/DH%20-%20Publisher%20-%20final%20%28with%20background%20color%29.pdf)
7. [%20Publisher%20-%20final%20%28with%20background%20color%29.pdf](https://www.isdb.org/sites/default/files/media/documents/2019-10/DH%20-%20Publisher%20-%20final%20%28with%20background%20color%29.pdf)
8. The United Nations Conference on Trade and Development. [Elektron resurs]. URL: <https://unctad.org/en>
9. </Pages/ALDC/Least%20Developed%20Countries/UN-list-of-Least-Developed-Countries.aspx>

# **ILM FAN XABARNOMASI**

## **Ilmiy elektron jurnali**

10. Islamic Development Bank. IDB Group Strategic Framework. [Elektron resurs]. URL: <http://www.IsDB.org/irj/portal /anonymous?NavigationTarget=navurl>
11. [://bfc2a8bf444d692d3acf3b73220e0121](http://bfc2a8bf444d692d3acf3b73220e0121)